

2p

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:44 (67001)

2014-yil

3-noyabr

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

MAXSUS SON ANDIJON VILOYATIGA SAFAR

Boshimizda musaffo osmon,
Quvonchimiz erur bir jahon.
Shodon o'tar har bir onimiz,
Yashnayapti Andijonimiz!



Xushxabar
Andijon viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi 7-maxsus musiqa maktab-internatining 9-«A» sinf o'quvchisi **Mavlombek O'rmonov** Toshkent shahrida o'tkazilgan «Ona yurt obanglarini» Xalqaro ko'rik-tanlovida ishtirok etib, I o'rin sohibi bo'ldi.



DIQQAT! DIQQAT!



Buloqboshi tumanidagi 6-umumta'lim maktabi o'quvchilari «Tong yulduzi» gazetasiga birinchilardan bo'lib OBUNA bo'lishdi.

IJODKORLAR FESTIVALI

Andijonda «Kamalak yulduzlari» respublika bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Festivalda 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 500 nafardan ziyod o'g'il-qiz ishtirok etdi.

– Yosh iste'dodlarni izlab topish, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishda «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining alohida o'rni bor, – deydi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Andijon viloyati Kengashi rahbari vazifasini bajaruvchi Akmal Jumaboyev. – Festivalning tuman va shahar bosqichlarida 15 mingdan ziyod bola qatnashgani unga bo'lgan qiziqish yuqori ekanini ko'rsatadi.

Tanlov doirasida yosh rassom va hunarmandlarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi, yosh san'atkorlar ishtirokida madaniy tadbirlar tashkil etildi.

O'z yo'nalishlarida g'olib deb e'tirof etilgan yigirma nafar iste'dodli o'g'il-qiz festivalning respublika bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

St. M. HADYEV olgan rasmlar

IQTIDORLI YOSHLAR - YURT ISTIQBOLI

Istiqlolimizning istiqboli bo'lgan, mustaqilligimizni mustahkamlashga o'zining munosib hissasini qo'shadigan, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish va ularga ta'lim-tarbiya berish yo'lida amalga oshirayotgan ishlarimizni tahlil qilish, aniq tadbirlarni belgilab, shu asosda

Dilmurod Rahmatullayev, Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i:

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan tub islohotlar o'quv jarayoniga nisbatan o'zgacha mazmun, o'zgacha tahlil va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etmoqda.

Hozirda ta'lim sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz bilan faxrlansak arziydi. Ayniqsa, o'tgan o'quv yilida o'quvchilarimizning erishgan muvaffaqiyatlari biz pedagoglarning kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shdi.

2013-2014-o'quv yilida «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida ishtirok etgan o'ttiz nafar o'quvchimizdan 16 nafari faxrli o'rinlarni egalladi.

Mazkur yilda Belarusiyaning Mogilyovsk shahrida o'tkazilgan «Oltin asalari» XIV xalqaro bolalar ijodiy festivalida Jalaquduq tumani 13-BMSM 5-sinf o'quvchilari Muxlisa Mashrapova va Oyista O'smonova duet aytilish yo'nalishida

ishtirok etib, faxrli o'ringa loyiq topildi.

«Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi - 2014» tanlovining respublika bosqichida Andijon shahar 31-umumta'lim maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi Nargiza Hamidova 2-o'rinni, Andijon tuman 25-umumta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi Shohida Roziqova 3-o'rinni, respublikada umumjamoa hisobida viloyatimiz faxrli 3 o'rinni qo'lga kiritdi.

2014-yilda erishgan muvaffaqiyatlarimizdan yana biri Shahrixon tumani 4-DIMI direktori M.Mamajonova «Yilning eng yaxshi maktab direktori» respublika ko'riktanlovi g'olibi bo'ldi.

«Sog'lom bola yili»da sportning barcha turlari bo'yicha o'tkazilgan tadbirlarda viloyatimiz o'quvchi-yoshlari yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishdi. Jumladan, 2014-yilda badminton, sport gimnastikasi, voleybol, dzyudo sport turi bo'yicha viloyat ochiq birinchiligida ikki mingdan ortiq yoshlar ishtirok etishdi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar «Bolajon» dasturi asosida maktab ta'limiga

tayyorlanmoqda. Muassasalardan 93 ta «Ingliz tiliga yo'naltirilgan tayanch maktabgacha ta'lim muassasasi» sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Mazkur maskanlarda «Ingliz tili bilan do'st bo'lamiz» dasturi asosida «O'ynab-organamiz» mavzusida o'quv-seminarlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu o'quv-seminarlarda ingliz tili mutaxassislari maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning yangicha usullari, bolalarning psixologik xususiyatlari, xorijiy tilga o'rgatishda ota-onalar faolligini oshirish masalalari bo'yicha o'zaro tajriba almashmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bugungi kunda mingga yaqin chet tili to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, eng namunali o'qitish metodikalari viloyatda ommalashtirilmoqda.

2014-yil sentabr oyigacha jami 25 ta BMSMda yangi qurilish va kapital rekonstruksiya qilish ishlari yakuniga yetkazilib, foydalanishga topshirildi. Andijon tumani Xortum qishloq fuqarolar yig'ini hududida yangi barpo etilayotgan «Respublika o'quvchi-yoshlar markazi»ning qurilish-tiklash ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Markaz hududda 315 o'rinni yangi maktab qurilib, foydalanishga topshirildi. Bugungi egzu ishlarimiz zamirida, eng avvalo, sog'lom avlod tarbiyasi turadi. Zero, ibratli ishlarimiz kelajak avlod uchun xizmat qilishi shubhasiz.

Bugungi kunda Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufida 741 ta umumta'lim, 455 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 52 ta Bolalar va o'smirlar sport maktabi, 27 ta musiqa maktablari, 17 ta Barkamol avlod markazlari faoliyat ko'rsatadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 394507 nafar o'quvchilarga 30612 nafar pedagoglar ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.



KELAJAK VORISLARI

Viloyat Barkamol avlod bolalar markazida o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlari mazmunli tashkil etilishiga katta ahamiyat beriladi. Jumladan, ular o'zlarini qiziqtirgan to'garaklarga a'zo bo'lib, kasb-hunar sirlarini o'rganishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 187-sonli Qarori

asosida bu yerda ingliz tili to'garagi ham tashkil etildi. Mazkur to'garaklarga tajribali, o'z ishining ustasi hisoblangan pedagoglar rahbarlik qilmoqdalar.

Markazda turli ommaviy tadbirlar, musobaqalar, ko'riktanlovlar o'tkazib borish an'ana tusiga kirgan.

Shahar xalq ta'limi bo'limi hamkorligida «Bolalar bog'i»da «Qiz bolaning kasbi uning baxti» mavzusida tadbir o'tkazildi. Bunda asosiy e'tibor qiz farzandlarimiz egallayotgan turli kasb-hunarlarga qaratildi. Shuningdek, «Sog'lom bola yili» munosabati bilan sport va san'at bayram shousi bo'lib o'tdi. Biz buyuk yurt farzandlari

shiori ostida o'tkazilgan o'quvchi-yoshlar festivaliga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan yosh san'atkorlar tashrif buyurdilar. Ular viloyatning barcha tumani, shaharlarida bo'lib, ijodiy uchrashuvlar tashkil etdilar.

Notiqlik san'ati to'garagi a'zolari ishtirokida «Ona tili - millat ruhi», «Til bilmoq - el bilmoq» mavzularida insholar

tanlovi o'tkazildi. Tadbirda yosh pazanda, mohir qo'llar, yosh konstruktor to'garaklari a'zolari o'zlarining ko'rgazmali chiqishlarini namoyish etdilar. O'quvchilarning ona Vatani, o'zbek tilini madh etuvchi she'r va qo'shiqlari, raqslari tomoshabinlarga ko'tarinki ruh bag'ishladi.

Xulosa qilib aytganda, bu yerda o'quvchilarni farzandlari kabi chin dildan sevuvchi, o'z kasbining fidoyi kishilari mehnat qilishadi.



Asaka tumanidagi 57-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Zamira Nazarova haqida gap ketganda, hamkasblari «Uch diplom sohibasi», deya o'zgacha hurmat bilan tilga oladilar. To'g'ri-da, Xalq ta'limi vazirligining bir emas uch marotaba birinchi darajali diplomi bilan taqdirlanish oson emas, albatta.



UCH DIPLOM SOHIBASI

Tirishqoq, izlanuvchan, o'z kasbining ustasi bo'lgan Zamira opa o'tgan yillar davomida ko'plab tanlovlarda ishtirok etdi. Jumladan, «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida 1-o'rinni egalladi.



Ustozdan o'rnak olayotgan shogirdlar ham bo'sh kelishmayapti. 7-sinf o'quvchisi Gulsum Abdulhatova 2013-hamda 2014-yillarda o'zbek tili fanidan «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida ishtirok etdi va 1-o'rinni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

– Zamira opa hamisha bizga g'oliblikka faqat puxta bilim bilan erishish mumkinligini uqtiradilar. Shundanmi, bugungi kunda

ustozning talaygina shogirdlari ko'plab tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallashmoqda, – deydi tengdoshingiz Gulsum.

– Bizning shunday ustozimiz borligidan faxrlanamiz. Mazkur maktabda ustoz-shogirdlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bu kabi ibratli ishlarga bosh bo'layotgan maktab rahbari Nigora opa Abdulazizovadan barcha minnatdor.

BO'TAQORADA BIR MAKTAB BOR...

Andijon viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi 7-maxsus musiqa maktab-internatida bir qator ibratli ishlar amalga oshirilmogda.

Maktab-internatida xalq cholg'ulari, kamer orkestri, turli yo'nalishlardagi ansambllar tashkil qilinib, tarbiyalanuvchilar tuman, viloyat, respublika miqyosidagi tadbir va ko'rik-tanlovlarda faol qatnashib kelmoqda. Shular orasida o'z ustida muntazam shug'ullanuvchi, izlanuvchi va tirishqoq o'quvchilar ko'p yillardan beri respublikamizda tashkil qilingan festival va ko'rik-tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. San'at g'unchalari ko'rik-tanlovida qatnashgan Ibrohimjon Aliyev va Sarvarbek Hasanov I darajali, Abduqahhor Abdurahimov hamda Islombek Zokirov II darajali diplom egasi bo'lishdi.

Shodiyona milliy o'zbek cholg'ulari kamer orkestri 2013-2014-yillarda Toshkent shahrida o'tkazilgan Navro'z sadolari ko'p ovozi ansambli va orkestrlar VI-VII respublika ko'rik-tanlovlarda ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egallab,

viloyat sharaflini munosib himoya qilishdi. Yosh iste'dod egalari nafaqat respublikamizda, balki xalqaro miqyosdagi tanlovlarda ham munosib o'rinlarni egallab



kelmoqda. Jumladan, g'ijjak sinfi o'quvchisi Iskandar Sobirjonov 2012-yili Rossiya federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan xalq cholg'ulari VI xalqaro festivalida I darajali diplom bilan taqdirlangan bo'lsa, qashqar rubob sinfi o'quvchisi Javohir Isroilov esa 2013-yil Suzdal shahrida o'tkazilgan xalqaro ko'rik-tanlovida III darajali diplomga loyiq topildi.

Xullas, maktab-internati tarbiyalanuvchilarining qo'lga kiritgan yutuqlarini sanayversak tugamaydi. Mabodo, Bo'taqora qishlog'iga yo'lingiz tushsa, 7-maxsus musiqa maktab-internatiga kirib o'tishni unutmang!

N. SULTONOV olgan suratlar



TIL – MILLAT KO'ZGUSI

Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinganligiga bu yil 25 yil to'ldi.

O'tgan davr mobaynida ona tilimizning yanada sayqallanishi, badiiyligi, tarixiyligi, dunyo miqyosida ahamiyati hamda nufuzini oshirishga qaratilgan qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar, izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

21-oktabrni yurtimiz ahli Til bayrami sifatida keng nishonladi. Mazkur bayram bizning maktabimizda ham katta tantana bilan kutib olindi. «Til – millat ko'zgusi» deb nomlangan badiiy kechada 5-9-sinf o'quvchilari ishtirok etdilar. O'quvchilar tomonidan aytilgan tilimiz haqidagi she'rlar, qo'shiqlar, ijro etilgan go'zal raqslar hammani birdek quvontirdi. Ayniqsa, tilimizga ta'rif bergan buyuk

allomalimizning so'zlari, Alisher Navoiyning purma'no hikmatlarini tinglagan har bir yosh uning naqadar go'zalligi, boyligi, shu tilda yaratilgan bebaho asarlarini o'qish va uqish, unga hurmat bilan qarash tuyg'ularini his etgan bo'lsa, ajab emas. Tadbir so'ngida 7-«B» sinf o'quvchilari tomonidan «Til qudrati» deb nomlangan sahna ko'rinishi namoyish etildi. Ha, tilimiz asoschisi – Alisher Navoiy o'z xalqini, yurtini sevgani kabi ona tilimizni ham behiyo sevgan va ardoqlagan, bizga buyuk meros sifatida bebaho asarlarini in'om etgan. «O'zbek tilim – ona tilim, dunyoda eng go'zal, jarangdor va boy tilim», deb aytsak, ona tilimizga to'g'ri ta'rif bergan bo'lamiz.

Shuhratbek
SHERMUHAMMEDOV,
Buloqboishi tumanidagi
5-umumta'lim maktabining
7-«B» sinf o'quvchisi

Buvim bilan bobom dam olish sihatgohida tanishgan xorazmlik Adolat buvi va lthomjon bobo biznikiga mehmonga kelishdi.

DO'ST BILAN OBOD UYING

Qizg'in suhbat chog'ida atoqli shoirimiz Erkin Vohidov qalamiga mansub

Do'st bilan obod uying,

Gar bo'lsa u vayrona ham.

Do'st qadam qo'ymas esa,

Vayronadir koshona ham...

satrlarini ko'p bor takrorlashdi. Mehmonlar har bir ko'rgan narsalaridan «Dim yaxshi, dim yaxshi», deya xursand bo'lishdi. Bobojonim asalari boqish, gullarni parvarishlash haqida tajribalarini o'rtoqlashdi. Ularga lola gulining piyozidan berdi. Endi Xorazmda ham bizning lolalar ochiladigan bo'ldi. Yo'zgi ta'tilda bobom, buvim meni ham Xorazmga olib borishar ekan. Men ularning nabiralari bilan tanishib, do'stlashaman, deb niyat qildim.

Dildora ABDUXOLIQOVA,
Izboskan tumanidagi
1-umumta'lim maktabining
4-«A» sinf o'quvchisi



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

SHAHARDA BIRINCHI

TAJIRIBA MAYDONI



Andijon shahridagi 30-umumta'lim maktabi o'tgan o'quv yillari mobaynida ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi bo'yicha tajriba maydoni deb belgilandi. Moslashtiruv, faollashuv hamda yakunlovchi bosqichlarda talaygina ishlar amalga oshirib kelindi.

Dastlab, maktabning ichki buyrug'i ishlab chiqilib, ishchi guruhi tuzildi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tiladigan tajriba-tadqiqot jarayoni bo'yicha dars jadvali tuzildi. So'ngra eksperimentator-o'qituvchilar o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzularni aniqlab olishdi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi bo'yicha tarix fani o'qituvchisi K.Usmonova, U.Mirzarahmonova, huquq fani o'qituvchisi F.O'rmonboyeva, ona tili fani o'qituvchilari G.Yuldasheva hamda I.G'aniyeva tajriba ishlari bo'yicha mas'ul etib tayinlandi. Endilikda o'qituvchilar murakkab mavzularni belgilangan dars jadvallari asosida o'tmoqda. Ular o'z darslarini yangi innovatsion pedtexnologiya usullaridan «Aqliy hujum», «Zinamazina», «Bingo», «Sxematik topshiriq», «Klasster», «Guruhlar bilan ishlash», «Mini leksiya» kabi yangi innovatsion texnologiyalar asosida o'tilayotgan darslar kutilgan samarani bermoqda. Tajriba-tadqiqot maydonida erishilgan yutuqlar respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida ommalashtirilmoqda.

Bu ta'lim muassasasida har yili an'anaga aylangan «Bilimlar bellashuvi» ko'tarinki kayfiyatda tashkil etiladi. O'tgan o'quv yilida tanlovning shahar bosqichida ishtirok etgan o'quvchilardan yetti nafari birinchi o'rinni egalladi. Jumladan, fransuz tili fanidan 6-sinf o'quvchisi M.Hojiyeva, 7-sinf o'quvchisi M.Ne'matjonova, 8-sinf o'quvchisi S.Inaqov, matematika fanidan 7-sinf o'quvchisi U.Bahromjonova, 6-sinf o'quvchisi M.Ro'ziboyeva, geografiya fanidan 6-sinf o'quvchisi O.Nasibullayeva bellashuvda o'z bilim va salohiyatini namoyish etish bilan birga, ta'lim olayotgan maktabning ilg'or ta'lim muassasasi ekanligini isbotlashdi.



DAVOMAT – MAKTAB MONITORIDA

Andijon shahar XTMFMT va TE bo'limiga qarashli 30-umumta'lim maktabida o'quvchilar davomatini yaxshilash bo'yicha maxsus mexanizm yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu bir necha tizimda amalga oshirilmoqda.

1-tizim. Liderlar guruhi bilan ishlash. Har bir sinfdan eng faol o'quvchilar tanlab olinadi. Ular maktabga kelmagan tengdoshlarining ulariga borishib, nima sababdan dars qoldirganini aniqlashadi. Shuningdek, liderlar sinfdoshlarini maktabga formada, darslik va o'quv qurollari bilan kelishlarini nazoratga olishadi.

2-tizim. Kunlik davomat maktab monitorida sinflar kesimida tahlil qilinadi va tahliliy ma'lumotlar o'quvchilar tomonidan intiqlik bilan kutiladi. G'olib sinflar rag'batlantirilib, davomati past sinflarga sinov muddati beriladi.

3-tizim. «SMS» – xabar. Bunda maktabga kelmagan o'quvchining ota-onasiga hamkorligi ta'minlanadi.

sinf rahbari tomonidan «SMS» xabari yuboriladi va shu orqali o'quvchining dars qoldirishi sababi aniqlanadi. Bu tizim vositasida maktab va oila hamkorligi ta'minlanadi.

4-tizim. Ichki nazorat. Maktab rahbari Feruza opa Yuldasheva boshchiligidagi ichki nazorat guruhi tuzilgan bo'lib, mazkur guruh hech kimni ogohlantirmasdan haftada bir kun sinflarda davomat, xona tozaligi, o'quvchilar formasi, kitob-daftarlarning mavjud va o'ralganligini nazorat qilib, sinflar reytingini chiqarishadi. Nazoratchi guruh har bir sinfni rasmg'a oladi. Haftalik o'qituvchilar yig'ilishida ishchi guruhi tomonidan slaydlar asosida ichki nazorat natijalari taqdimoti o'tkaziladi. Ushbu tizim bo'yicha «Eng faol sinf», «Davomati eng yaxshi sinf» nominatsiyalari e'lon qilinadi. G'olib sinflar taqdirlanadi.

XURSHIDBEK G'OLIB

Asaka tumanidagi 24-IDUMIda iqtidorli o'quvchilar tahsil olishadi.

9-«A» sinf o'quvchisi Sanjarbek Abduhalilov, 8-«B» sinf o'quvchilari Yahyo Abdug'afrov, Akmal Ahmadjonov, 7-«A» sinf o'quvchisi Mubina Mamadaliyeva, 7-«B» sinf o'quvchilari Behzod Mahmudov, Aziza Sobirova, Fayzullo Foziljonov, Abbasbek Ulug'bekovlarning erishayotgan yutuqlari ham bisyor. Jumladan, 8-«A» sinf o'quvchisi Xurshidbek Rustamov bu yil tarix fanidan «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida 1-o'rinni olishga muvaffaq bo'ldi.



Xurshidbek maktabning faxriga aylangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. U barcha fanlardan a'lo baholarga o'qish barobarida matematika, fizika, ingliz tili fanlariga juda qiziqadi, kelajakda tarjimon bo'lish niyatida.

Ayni damda esa barcha ustozlarining o'g'itlariga amal qilayotgan Xurshidbek va uning maktabdoshlariga omad tilaymiz va bilim cho'qqilari sari izlanishda davom etavering, deymiz.

MUZAFFAR

Izboskan tumanidagi 15-umumta'lim maktabi o'ziga xos an'analarga ega bilim maskanlaridan biri hisoblanadi. Tumanning chekka hududlaridan sanalgan Yangiqishloqdagi mazkur maktab Istiqlol yillarida o'zgacha ko'rinishga ega bo'ldi. 2007-yili kapital ta'mirdan so'ng barcha fan xonalari yangi jihozlar bilan ta'minlandi.

YANGIQISHLOQ YANGILIKLARI

Bugungi kunda mazkur maktabda 67 nafar malakali ustoz va murabbiylar 895 nafar o'quvchilarga zamonaviy talablar darajasida saboq berib kelmoqdalar. Gulnora Musirova va Shahodat Husanova kabi oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchilari maktabga ilk qadamlarini qo'ygan o'quvchilarga puxta bilim berishga intiladilar. Biologiya fani o'qituvchisi Mamlakatxon Aliqulova, musiqa fani o'qituvchisi Rahmiddin Majidov, jismoniy tarbiya bo'yicha murabbiy Muyassar Mamajonova shogirdlari fan olimpiadalari va sport musobaqalarida g'oliblar safidan o'rin olib kelmoqdalar.

4-«A» sinf o'quvchisi Dildoraxon Abdullolqovanning turli mavzudagi maqolalari tuman gazetasida tez-tez chop etilib turarkan. 5-«A» sinf o'quvchisi Sarvinov Alijonovning «Men o'zbekning qiziman» nomli she'riy to'plami bosmadan chiqib ulguribdi. Shifokor bo'lish orzusidagi 8-«A» sinf o'quvchisi Gulmira Olimjonova biologiya fani bo'yicha viloyatda 2-o'rin sohibasi. 9-«B» ning faxri bo'lgan Shahlo Mahmudova «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovining respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritibdi. 9-«A» sinfidan Mavluda Mamajonovanning raqslardagi nafis harakatlariga qoyil qolmay iloj yo'q. Xolida Madaminova, Dilnura Xudoyberdiyeva 5-«A» sinfida a'lo baholarga o'qish bilan birga, besh yoshidan buyon badiiy gimnastika bilan shug'ullanib kelisharkan. Bu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari ham talaygina.

Mana, Yangiqishloqdagi yangiliklar bilan ham tanishib oldingiz. Yo'lingiz tushib Izboskan tomonlarga borib qolsangiz, albatta, bu bilim maskaniga ham kirib o'ting. U yerdagi tinib-tinchimas, izlanuvchan o'quvchilarni o'z ko'zingiz bilan ko'rib, olam-olam zavq olishingiz shubhasiz.

Lesson 9

Let's check your knowledge
(Bilimingizni sinab ko'ring)

Put these words in the correct place:

Nose, river, leg, blackboard, head, sunny, chair, desert, hot, mountains, window, ear, pen, rainy, forest.

HABITAT	WEATHER
.....	rainy
SCHOOL THINGS	BODY
.....


Read and find the jobs.

1. She is a very kind woman. She works in a hospital. She is a



2. Salima is always with pupils. She works in a school. She is a

3. Anvar has got a lot of work to do. He has got a farm. He is a



4. Botir works in an office. He talks on the telephone. He works on a computer. He is an

5. He has got a car. He drives people. He is a

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

CROSSWORD

- osmon
- tabiat
- jo'ja
- olma
- gul
- paxta
- tun

Saodatxon ERKABOYEVA,

Asaka tumanidagi 57-umumta'lim maktabining o'qituvchisi

The erudits school

(Bilimdonlar maktabi)

In Asaka district 42nd state specialized boarding school has been organized for 20 years. In this period the school has been a great authority and place not only in his district but in region also. This year from this school three pupils took part in «Bilimlar bellashuvi» as, Sirojiddin KHASANOV from English 2nd place, Davron ABDULBORIYEV from physics and Azizillo KAMBAROV from mathematics.



Crocodile game

Play with your classmates. Repeat all these words. You may mime one kind of animal and other pupils will guess it. The pupil who will guess first should mime other kind of animal and others will guess it also. In this way you may continue. Play this game it is interesting.




Guruh SOLIYEVA

Spidergram

(Mantiqiy o'yin)

Let's dear pupils make some word expressions and complete these spidergrams rightly:



a poem, coffee, decisions, languages, the situation, tea, a taxi, soap, photo.

YAXSHILARDAN SABOQ OLGAN EL

Kuz o'zining zarhal ranglari bilan borliqni bezab turgan ayni kunlarda, ijod ahlining qalbida ham allaqanday his-hayajonlar g'alayon etayotgan bo'lsa, ajabmas.

She'riyatning nurli olami ichra kezib, go'zalikka mahliyo bo'lgan har bir qalb sohibining o'zi shivirlab aytadigan dil so'zi bor. Andijonlik ijodkorlarning dilnomalarini ko'zdan kechirib, bunga guvoh bo'ldik. Xayolimizdan Zahiriddin Muhammad Boburning:

Bori elga yaxshilig' qilg'ilki mundin yaxshi yo'q,

Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'... satrlari jonlandi.

Bobokalonimiz go'yo bizga yaxshilikdan saboq berayotgandek tuyuladi. Ulug'lar qadami tekkan bu muqaddas tuproqdan bir qancha yetuk ijodkorlar yetishib chiqqaniga guvohimiz. O'ylaymizki, Boburdek buyuk shoir voyaga yetgan bu diyorda hali ko'plab ijodkorlar dunyoga keladi.

O'ZBEKISTON

O'zbekiston aziz diyor,
Saodatli mehnatga yor,
Tuprog'ining xislati bor,
Intilganga ishonch bisyor.

Yashnab turar go'zal bo'ston,
Shoirilari yozar doston.
Bu Vatanda ahil-inoq,
Yashar barcha birdek quvnoq.

*Gulsum ABDULAHATOVA,
Asaka tumanidagi 57-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi*

MA'RIFATDAN CHAROG'ON OLAM

Ma'rifat erur ko'ngilning bog'i,
Jaholat esa hayot botqog'i.
Ma'rifat bilan yashnaydi bog'lar,
Jaholat kelsa, titraydi tog'lar.

Ma'rifat qalbda yoqilgan chiroq,
Jaholat esa insonga tuzoq.
Ma'rifat bilan charog'on olam,
Xato qilmasa agarda odam.

*Maftuna HOSHIMOVA,
Izboskan tumanidagi 15-umumta'lim
maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi*

E'TIBOR

(Hikoya)



Adabiyot o'qituvchimiz darslarning birida she'r yodlashni vazifa qilib topshirgan edi. Hamma yoddan she'r o'qidi, faqat Ilyosgina she'r ayta olmadi. Ustozimiz sababini so'ragan edi:

– So'zlari qiyin ekan, yodlashga qiynalдим, – dedi.

– Bolalar, Ilyosga kim yordam beradi? – deya so'radilar ustozimiz, so'ng sinfdagi eng a'lochi

o'quvchilardan biri bo'lgan Nilufarga qarab:

– Sen yordam beraqol, – dedilar.
Nilufarga esa bu taklif yoqmadi. U ustozga javob bermadi, ammo Ilyosga xo'mrayib qo'ydi.

– Ustoz, men yordam bersam maylimi? Ilyos bilan bir mahallada turamiz, – deb qoldi birdan Oydingan degan o'quvchi.

– Mayli, qizim... agar sen xohlasang, albatta, roziman, – dedilar ustoz.

Darvoqe, keyingi adabiyot darsida Ilyos she'rni juda chiroyli, ifodali qilib yoddan aytib berdi.

– Barakalla, Ilyos, she'rni yaxshi yod olibsan. Buning uchun Oydinga ham rahmat, – dedilar o'qituvchimiz quvonib.

Sinfdoshlarning nigohi bu gal hammadan ko'proq bilimliman, deb yurgan Nilufargamas, Oydinga qadaldi.

*Oysha RO'ZIBOYEVA,
Buloqboshi tumanidagi 5-umumta'lim
maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi*

ANDIJON VILOYATI «BARKAMOL AVLOD» BOLALAR MARKAZI «YOSH QALAMKASHLAR» TO'GARAGI A'ZOLARINING IJODIY ISHLARIDAN NAMUNALAR



«Bembi» A. TOJIXONOVA



«Manzara» A. SULTONOV



«Janubga qaytish» A. G'ANIJONOV



«Jivakor kuz» A. VORONOVA

SEN MENING YORQIN IZIM



Sen asalim, novotim,
Porlab turgan quyoshim.
Osmondagi oyimsan,
Yulduzlarga boyimsan.

Sen podshohim, taxtimsan,
Kulib turgan baxtimsan.
Ham oftobim, naqshimsan,
Dilimdagi ahdimsan.

Osmonimiz musaffo,
El-u yurt tinch doimo.
Kelajagim – yulduzim,
Sen mening yorqin izim.

*Tursunoy RAHIMOVA,
Ulug'nor tumani,
Taqali qishlog'i*

Aziz o'quvchi, moziyning siz bilgan va bilmagan, umumjahon ma'naviyatga katta hissa qo'shgan ajdodlarimiz hayoti va faoliyati, bebaho madaniy merosi, ularning ijodlari haqida biroz suhbat qurmoqni ixtiyor etdik. Bu borada muzeylar bo'ylab sayohat juda muhimdir.

shamshiri» va boshqa ashyolar o'sha davr haqidagi bilimlaringizni oshiradi.

Dunyo tarixchi olimlari e'tiboridagi Jome' me'moriy majmuasi XIX

hayoti va faoliyati bilan bog'liq tasviriy va yozma manbalar, qimmatli ashyolar sizni nasr va she'riyat olamiga olib kirib, adabiyot bo'stonida munosib o'rin olgan ijodkorlar bilan oshno qiladi.

Eng qiziqarlisi, amaliy san'at bo'limida ko'rgazmaga qo'yilgan ko'hna

va milliy pichoqchilik namunalari milliy hunarmandchilik sirlaridan voqif bo'lasiz. Bundan tashqari, Cho'lpon yodgorlik ekspozitsiyasi, «Qal'a» obidasida joylashgan tasviriy san'at galereyasi, Shahrixondagi shoir Mulla Alixon Oxund Ozriy bo'limlari barchada birdek qiziqish uyg'otadi.

Muzeyda ijodkorlar bilan uchrashuvlar, o'quv darslari, «Tasviriy san'at haftaligi», «Xalqaro muzeylar haftaliklari», «Ochiq eshiklar kuni», taniqli rassom va xalq ustalari ishtirokida «Mahorat maktabi» darslari muntazam o'tkazib boriladi.

Dilshodbek YUSUPOV, Andijon viloyati «Adabiyot va san'at» muzeyi mas'ul xodimi, Nurbek QIDIRALIYEV tayyorlashdi



kulolchilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, o'ymakorlik

MOZIYDAN SADO

Mustaqillikka tengdosh Andijon viloyati «Adabiyot va san'at» muzeyida bugungi kunda oltita bo'lim mavjud bo'lib, beshta binoda joylashgan. Ular tarix, ma'naviyat va tasviriy san'at darslari, o'zbek milliy me'morchilik san'ati haqidagi suhbatlarning hayotiy ko'rinishi sifatida ko'z oldingizda namoyon bo'ladi, me'morlarimizning yuksak iste'dodidan dalolat beradi. Bu o'lkaga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar ham, eng

avvalo, ana shu obidalarini tomosha qilishadi.

XIV asrda bunyod etilgan «Ark ichi madrasasi» me'moriy yodgorligida faoliyat ko'rsatayotgan Bobur yodgorlik muzeyiga kirsangiz, ko'nglingiz yorishadi. Xayol sizni ulug' shoh va shoir davriga yetaklaganday bo'ladi. Rassomlar va hunarmandlar tomonidan ishlangan tasviriy san'at asarlari, maketlar, kulolchilik, misgarlik, zargarlik buyumlari, liboslar, qurol-aslahalar hamda «Bobur

asr oxirida qurilgan betakirgan me'morchilik namunasi. Obida bag'rida muzeyning adabiyot va xalq amaliy san'at bo'limlari faoliyat yuritadi. Bobur Mirzo tamal toshini qo'ygan olti asrlik tarixga ega «Andijon adabiy muhiti» ning Nodira, Uvaysiy, Habibiy, Cho'lpon, Muhammad Yusuf kabi

NAFIS SPORT TURI

Hozirgi kunda Andijon viloyatining barcha shahar va tumanlarida stol tennis bo'yicha to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. 113 nafar murabbiylar qo'l ostidagi 2556 nafar o'quvchi-yoshlar ushbu sport turi bilan muntazam shug'ullanmoqdalar.

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, stol tennisini ommalashtirish va yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston stol tennis federatsiyasi tomonidan viloyat miqyosida o'tkazilgan ko'plab musobaqalarda 1128 nafar (shu jumladan, 482 nafari qizlar) o'quvchi-yoshlar ishtirok etishdi. Viloyat yoshlarining, ayniqsa, xalqaro miqyosda erishayotgan yutuqlari e'tirofga sazovor.

Joriy yilda Qozog'istonda bo'lib o'tgan xalqaro turnirda ishtirok etgan Qutbidillo Teshaboyev, Izatillo Teshaboyev, Nazokat Abdusalomova, Zaynura To'xtamurodova umumjamoa hisobida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritishdi.

Urganch shahrida o'tkazilgan O'zbekiston Kubogi musobaqasida andijonlik yoshlar faxrli o'rinlarni egallashgan bo'lsa,

Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasida stol tennis bo'yicha R.V. Avanashev

xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan XVI respublika ochiq turnirida Umidjon Zokirov, Nazokat Abdusalomova, Odil Abdurahmonov, Husnora Iminova g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

Farg'ona shahrida 1994-95-yilda tug'ilgan o'smirlar va qizlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionati musobaqasida 13 nafar sportchilar ishtirok etib, Umidjon Zokirov yakkalik, Baxtiguloyim Tursunova aralash bahslarda faxrli 1-o'rinni egallab, oliy o'quv yurtiga imtiyozli kirish huquqini qo'lga kiritishdi.

Shuningdek, joriy yilning 16-17-avgust kunlari stol tennis bo'yicha Jizzax viloyatida sport maktablari o'rtasida o'tkazilgan Respublika birinchiligi Abdulaziz Anorboyev, Husnora Iminova umumjamoa hisobida 2-o'ringa munosib ko'rildi.

Kelgusidagi rejalar ham bisyor. Murabbiylar 2016-yil Rio-de-Janeyro shahri (Braziliya)da bo'lib o'tadigan XXXI yozgi Olimpiya va XV Paralimpiya o'yinlariga viloyat sportchi-yoshlarini tayyorlashga astoydil bel bog'lashgan.

Bugungi kunda yurtimizda bolalar sportini rivojlantirish, ayniqsa, qishloq qizlarining sport bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilayotir. Bunday keng ko'lamlı ishlar samarasini millionlar o'yini — futbol, xususan, ayollar futboli jadal ommalashib borayotgani misolida ham ko'rish mumkin.

SHAROITLARDAN OQILONA FOYDALANIB...

– Maktabimizda futbol bilan shug'ullanayotgan 558 nafar o'quvchining 120 nafari qizlardir, – deydi Andijon viloyati, Xo'jaobod tumani xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufidagi bolalar va o'smirlar futbol maktabi direktori Soyibjon Nazirov. – Qizlar sakkiz guruhda futbol texnikasi, qonun-qoidalarini malakali murabbiylar rahbarligida puxta o'zlashtirmoqda. Zamonaviy futbol maydonlari, mashg'ulotlar o'tkazish uchun maxsus

maydonchalar, mashg'ulot zali ular ixtiyorida.

Bunday sharoitlardan samarali foydalanayotgan maktabning qizlar jamoasi turli musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda. 2013-yili viloyat birinchiligi hamda «Qizlar ligasi – 2013» musobaqalarida ikkinchi, «Bahor malikasi – 2014» turnirida uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Maktab tarbiyalanuvchilaridan Surayyo Qamchiyeva, Kumushoy G'ulomova viloyatning «Andijanka» jamoasi safida to'p surmoqda.

M u x t a s a r aytganda, Xo'jaobod tumani bolalar va o'smirlar futbol maktabida o'quvchilarning nafaqat mohir futbolchi, balki sog'lom tafakkur va yuksak ma'naviyat sohiblari bo'lib kamolga yetishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda.





BOLAJONLARNING SEVIMLI MASKANI

Andijon shahridagi 43-maktabgacha ta'lim muassasasida 200 nafar tarbiyalanuvchi «Bolajon» tayanch dasturlari asosida maktab ta'limiga tayyorlanmoqda.

qiziqishini shakllantirish maqsadida «Kitobim – oftobim» burchagi tashkil qilingan bo'lib, bunda rasmiy, qiziqarli ertaklar, topishmoqlardan iborat kitoblarni uchratasiz. Har oyda ota-onalar

Tarbiyachilarga zamonaviy texnologiya asosida yaqindan yordam ko'rsatish maqsadida «Tarbiyachilarga yordam», ota-onalar uchun esa pedagogik-psixologik maslahat burchaklari tashkil etilgan. Shuningdek, kichkintoylarning jismoniy faolligini oshirish maqsadida jismoniy tarbiya, mehnat malakalarini shakllantirishga mo'ljallangan mehnat burchaklari, ularning ma'naviy dunyoqarashi, kitobga bo'lgan

ishtirokida «Men sevgan kitob» mavzusida suhbatlar, munozaralar tashkil qilinishi mazkur burchakning yangi adabiyotlar bilan boyitilishiga asos bo'lmoqda.

«Tug'ilgan kuningiz bilan» burchagi orqali bolajonlar tavallud kunini nishonlayotgan o'rtoqlariga atab rasm chizishi, she'r yodlashi, qo'shiq kuylashi ularda yuksak ko'tarinki kayfiyatni uyg'otish bilan birga, o'zaro do'stlik munosabatlarini shakllantirishga erishilmoqda.

Shu kunlarda MTMda bo'lib o'tgan «Zumradoylar» ko'rik-tanlovi tarbiyalanuvchilarning


ingliz va rus tillaridagi bilimlarini hamda boshlang'ich pazandachilik mahoratlarini namoyish etishlariga zamin yaratdi. O'rta guruh



Hatto tushlarida sokinlik ayon, Sen buyuk ishlarga qodir, bolajon!

tarbiyalanuvchisi Mukarramxon Odilbekova tanlovning g'olibi deb topildi. Mazkur tanlovning qiziqarli tashkilotirishda muassasaning ilg'or tarbiyachisi Cho'Iponoy Qodirovaning hissasi katta bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, bu maskanga tashrif buyurgan kishi borki, bolalarning shodon kulgusiga to'la bog'cha hovlisida, eng avvalo, muassasa mudirasi Matluba Mirzaolimovani ko'radi. Ha, opa bugun qishki mavsumga tayyorgarlik tashvishida... Nima ham derdik, ta'lim maskanlarini obod qilayotgan fidoyi pedagoglarimiz bor bo'lishsin!



«OBOD DIYOR» KROSSVORDI

Diagonallar bo'yicha o'ngga: 1. Olimpiada o'yinlarida mustaqil O'zbekistonning eng birinchi chempionligiga erishgan ustoz bokschi. 3. Andijonlik atoqli o'zbek yozuvchisi, shoiri,

dramaturgi, jamoat arbobi. 22. Viloyatdan oqib o'tuvchi daryo.

Diagonallar bo'yicha chapga: 1. O'rta Osiyo mamlakatlari kubogi va chempionligiga sazovor bo'lgan ayollar futbol jamoasi.

Eniga: 2. Boshqoli **BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!** don ekini.

Bo'yiga: 3. Viloyatda keng shug'ullaniladigan sport turi. 4. Viloyatning g'arbiy qismida joylashgan tuman markazi. 5. Chegaradosh viloyat. 11. Tokchilik hosili. 12. «Parvona» xalq teatri faoliyat olib borayotgan tuman. 13. Sahna san'atlarining bir turi. 14. Viloyat qo'g'irchoq teatri. 15. Avtomobilsozlar shahri. 16. Viloyatdan oqib o'tuvchi soy.

25. Futbol jamoasi. **Harflar bo'yicha «zanjir» holda:** 6. Ilm-ma'rifatga bag'ishlab asarlar yozgan vodiylilik o'zbek shoirlaridan biri. 7. Andijon shahridagi zamonaviy sport majmui. 8. Asakada ishlab chiqarilayotgan avtomobil markasi. 9. Pilladan tola va gazlama ishlab chiqarish sanoati. 10. Ustoz aktyor Abbas Bakirov obrazlar jiro etgan san'at sohasi. 17. Xalq artisti, opera san'ati ustози. 18. Ommaviy tarzda shug'ullaniladigan sport turi. 19. Kuzpishar ho'l meva. 20. Yoshligidan elga tanilgan xonanda. 21. Yevropa chempionligiga sazovor bo'lgan sambo ustasi.

Tuzuvchi: Husan O'RIPOV

Maxsus sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati xodimlariga, Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Dilmurod Rahmatullayev, DTSM bo'limi boshlig'i Azizbek Azimov, Viloyat

«Barkamol avlod» bolalar markazi rahbari Gulnora Yuldasheva va boshqa mutasaddilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiriramiz.

Ushbu sonni tayyorlaganlar: F. Adilova, F. Matyoqubov, A. Karimov, Yu. Abdullayev, N. Qidiraliyev, D. Hotamova, J. Matyoqubov, N. Abdullayeva, O. Tursunboyeva, Sh. Maxmadiyev, Z. Mamatqulova.

8

3-noyabr 2014

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: Omonulla YUNUSOV, Abduq'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul
KARIMOV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzillimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz
Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shaki A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi – 29849 Buyurtma – S 1278